



## **ORIENTAL UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEVI**

**«ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSI – MO‘TABAR MADANIY MANBA»  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
MATERIALLARI**

**I qism**

**Toshkent – 2024**

UO‘K 821.512.161

**Mas’ul muharrir:**

- Axmedov Murod** – Oriental universiteti rektori  
**Eshonqulov Jabbor** – O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori

**Ma’sul muharrir o‘rinbosari:**

- Nasirova Malika** – Oriental universiteti Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori

**Tahrir hay’ati:**

- Jo‘raboyev Otabek** – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori o‘rinbosari  
**Meliboyev Mirkomil** – Oriental universiteti Filologiya fakulteti dekani  
**Xasanova Shafoat** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası professori v.b.  
**Rahmatova Gavhar** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası mudiri, dotsent  
**Axmedova Nargiza** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası dotsenti  
**Tuychiyeva Oydin** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası dotsenti  
**Azimbayeva Nargiza** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi  
**Begimqulova Shohsanam** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

**Nashrga tayyorlovchi:**

- Tadjiyeva Umida** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- Sodiqov Qosimjon** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrası professori  
**Rustamiy Salima** – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası professori

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.*

Ushbu to‘plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil 31-yanvardagi \_\_-sonli yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

“Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo‘tabar madaniy manba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – 360 bet.

To‘plamda Oriental universitetida o‘tkazilgan “Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi – mo‘tabar madaniy manba” deb nomlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma‘ruzalari jamlangan. Maqolalarda sharq tillari va adabiyotining nazariy masalalari, xorijiy tillar o‘qitish metodikasi, manbashunoslik kabi sohalarga oid dolzarb masalalar yoritilgan.

Материалы международной научно-практической конференции на тему “Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур – бесценный культурный ресурс”. – Ташкент: Университет Oriental, 2024. – 360 стр.

В сборник вошли лекции известных ученых и молодых исследователей, принимавших участие в международной научно-практической конференции “Наследие Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабур – бесценный культурный ресурс”, проходившей в Университете Oriental. В статьях освещаются теоретические вопросы восточных языков и литературы, методика преподавания иностранных языков, а также актуальные вопросы, связанные с таким направлением, как источниковедение.

Materials of the international scientific and practical conference on the topic “The Heritage of Alisher Navoi and Zakhiriddin Muhammad Babur – a prestigious cultural resource”. – Tashkent: Oriental University, 2024. – 360 p.

The collection includes lectures by famous scientists and young researchers who took part in the international scientific and practical conference “The Heritage of Alisher Navoi and Zakhiriddin Muhammad Babur – a prestigious cultural resource”, held at the Oriental University. The articles cover theoretical issues of oriental languages and literature, methods of teaching foreign languages, as well as topical issues related to such an area as source study.

“Ali Şîr Nevaî ve Zahîreddîn Muhammed Bâbur’un mirası – saygın bir kültürel kaynak” konulu uluslararası bilimsel-uygulamalı konferansın bildirisi. – Taşkent: Oriental Üniversitesi, 2024. – 360 sayfa.

“Ali Şîr Nevaî ve Zahîreddîn Muhammed Bâbur’un mirası – saygın bir kültürel kaynak” konulu uluslararası bilimsel-uygulamalı konferansın bildirisi” adlı uluslararası bilimsel ve uygulamalı konferansa katılan ünlü bilim adamlarının ve genç araştırmacıların tam metin bildiri kitabı içeriyor. Makalelerde Doğu dilleri ve edebiyatının teorik konuları, yabancı dil öğretim metodolojisi, menba (kaynak) çalışmaları gibi alanlarla ilgili güncel konular yer almaktadır.

البحوث المشاركة في المؤتمر العلمي التطبيقي الدولي تحت عنوان «تراث علي شير ناوائي وظهير الدين محمد بابر – مراجع ثقافية ذات أهمية بالغة». – طشقند: جامعة أورينتال، 2024م. – 360 صفحة.  
تحتوي المجموعة على المحاضرات و الدراسات لمشاهير العلماء والباحثين الذين شاركوا في المؤتمر العلمي التطبيقي الدولي تحت عنوان «تراث علي شير ناوائي وظهير الدين محمد بابر – مراجع ثقافية ذات أهمية بالغة» الذي تم عقده في جامعة أورينتال. فهذه الدراسات تلقي الضوء على مجالات عديدة “ ” “سائل النظرية للغات الشرقية وأدابها، ومنهجية تدريس اللغات الأجنبية، كما يتضمن القضايا المعاصرة ودراسات المصادر.

**1-SHO‘BA. ALISHER NAVOIY VA  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING  
SHARQ ADABIYOTI VA MADANIYATI  
TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI**

## ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONLARI BILAN BOG‘LIQ TALQINLARI

**Dilnavoz YUSUPOVA**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
professori, filologiya fanlari doktori  
Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodini uning o‘z talqinlari yordamida o‘rganish prinsipi asosida shoir “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlarning manbalari tadqiq obyektiga tortilgan. Mutafakkir adibning “Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘z asarlarining yaratilishi haqidagi fikrlari “Xamsa” dostonlarining g‘oyaviy mundariyasi bilan bog‘liq holda qiyosiy yo‘nalishda o‘rganilgan. “Layli va Majnun” bilan bog‘liq o‘rinda forsiy ijodkor Xoju Kirmoniy “Gavharnoma”sining tilga olinish sabablari tadqiq qilingan. Maqola muallifi Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma” dostoni nasabnoma yo‘nalishida bo‘lib, g‘oyaviy yo‘nalishi, kompozitsion qurilishi va tanlangan she‘riy o‘lchovi nuqtai nazaridan “Layli va Majnun” yo‘nalishiga mos emasligiga diqqat qaratadi va Navoiyning bu o‘rinda “Gavharnoma”ni tilga olishi Xojuning Nizomiy va Dehlaviydan keyingi uchinchi xamsanavis ekanligi, xamsanavislikda yangicha yo‘nalishni boshlab berganligi va dostonidagi poetik masalalarda unga ergashganligi bilan bog‘liq, degan xulosaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** *Xamsa, xamsanavislik, tatabbu‘, nasabnoma, doston, ijodiy laboratoriya.*

Azaldan Alisher Navoiy ijodiy laboratoriyasi o‘ziga xosligi va sirli jarayon ekanligi bilan tadqiqotchilar e‘tiborini jalb qilib kelgan. Navoiy asarlari uchun asos bo‘lgan manbalarni uning o‘z ijodidan izlash kerak degan fikr nechog‘li asosga ega ekanligini ta‘kidlagan holda ba‘zan buyuk mutafakkir asarlarida keltirilgan ayrim ishoralar nisbiy xarakterda bo‘lib, har doim ham ijodkor asarlari uchun asosiy manba bo‘la olmasligini e‘tiborga olmoq zarur. Xususan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shoirning turkiy tilda yaratilgan asarlari nomi keltirilar ekan, “Xamsa” dostonlari haqida shunday deyiladi: “Avvalkim, “Hayrat ul-abror” bog‘ida tab‘im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur. Yana chun “Farhod va Shirin” shabistoniga xayolim yuz tutubdur. Mir Xusrav dami “Shirin va Xusrav” o‘tidin charog‘imni yorutubdur. Yana chun “Layli va Majnun” vodusida ishqim po‘ya urub, Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisorimga gavharlar yetkuruptur. Yana chun “Sab‘ai Sayyora” rasadin zamirim bog‘labdur, Ashraf “Haft paykar”ining yetti hurvashin peshkashimga yarog‘labdur. Yana chun

“Saddi Iskandariy” asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum “Xiradnoma”sidin ko‘si isloh va imdod cholibdur [Navoiy 2000: 26]. Ushbu fikrlar ta‘sirida navoiyshunoslikda bu besh dostonni o‘rganishda Navoiy o‘zi ishora qilgan manbalarga tayanish kerak degan qarashlar vujudga keldi. Xususan, buyuk mutafikkirning “Layli va Majnun” dostoni zamonaviy adabiyotshunosligimizda nisbatan kam o‘rganilgan forsiy ijodkor Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma” asari ta‘sirida yaratilgan degan qarashlar ilgari surildi [G‘aniyeva, 2000: 312; Tohirov, 2021: 76]. Biz mazkur maqolada bu ikki dostonni o‘zaro qiyoslab, ular orasidagi aloqadorlikni tadqiq etmoqchimiz.

### **Xoju Kirmoniy va uning “Xamsa”si haqida umumiy ma‘lumotlar**

Abulato Mahmud ibn Ali ibn Mahmud Xoju Kirmoniy 1290–1342/1352-yillarda yashab faoliyat yuritgan fors-tojik shoiri bo‘lib, bolaligi Kirmon shahrida o‘tgan. Sayohat asnosida Isfahon, Shom, Roy, Bag‘dod, Hamadon, Sheroz va boshqa ko‘plab shaharlarda bo‘ladi [Rahmatov 2017: 4-5]. Adabiyot, falsafa, mantiq, ilohiyot, nujum, tarix kabi ilmlarni o‘rganadi. O‘z davrining donishmand shayxi Alouddin Simmoniy suhbatidan bahramand bo‘lib, unga murid tushadi va bir necha vaqt So‘fiobodda so‘fiylik bilan mashhur bo‘ladi, o‘z piringing she‘rlarini to‘plam holida jam‘ qiladi [Samarqandiy, 1981: 92]. Keyinchalik o‘zi ham Xoju taxallusi bilan she‘rlar yozib, Xoju Kirmoniy degan nom bilan shuhrat qozonadi.

Xoju Kirmoniydan bizgacha bir devon va olti masnaviy-doston yetib kelgan. Shoirning devoni ikki qismga: “Sanoe‘ ul-kamol” va “Badoe‘ ul-jamol” deb nomlangan to‘plamlarga ajratilgan. “Sanoe‘ ul-kamol” qasida, g‘azal, qit‘a, tarji‘band va tarkibband kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Shoirning safar vaqtida yozilgan g‘azallari “Safariyot”, safardan so‘ng qalamga olinganlari “Hazariyot” nomi bilan keltirilgan. Ushbu to‘plam 10736 baytni o‘z ichiga oladi. “Badoe‘ ul-jamol” esa qasida, tarkibband va g‘azallardan iborat bo‘lib, mazkur to‘plamda ham g‘azallarga alohida nom qo‘yilgan: “Shavqiyot”. She‘rlarning umumiy hajmi 4340 bayt atrofida [Rahmatov 2017: 7-8]. Shoirning “Somnoma” deb nomlangan dostoni Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si ta‘sirida yozilgan bo‘lib, Som Narimon va Pariduxtning muhabbatiga bag‘ishlangan.

Xoju Kirmoniy xamsanavislikda yangi an‘ana yaratgan ijodkor bo‘lib, uning beshligi tarkibidagi dostonlar nomlanish, mavzularning o‘zgachaligi

va qo‘llanilgan she‘riy o‘lchovlari bilan Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy dostonlaridan farq qiladi. Kirmoniy “Xamsa”si 1332–1345-yillar oralig‘ida yaratilgan [Aliyev, 1985: 230]. Beshlik quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi: “Ravzat ul-anvor”, “Kamolnoma”, “Gavharnoma”, “Humoy va Humoyun” hamda “Gul va Navro‘z”.

Kirmoniy beshligidagi birinchi doston – “Ravzat ul-anvor” Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoni ta‘sirida yaratilgan bo‘lib, dostonning nomlanishi, g‘oyaviy mundarijasi, kompozitsion qurilishi va tanlangan she‘riy o‘lchov uni Nizomiy asariga tatabbu‘ deyishga asos bo‘ladi. Kirmoniy beshligidagi boshqa dostonlardan farqli o‘laroq, muqaddimada Nizomiy va uning shu yo‘nalishdagi dostoni haqida eslab o‘tiladi:

*Garchi suxanparvari nomū tuū,  
Mu‘taqidi nazmi Nizomū tuū.*

*Darguzar az “Maxzani asror”-i ȳ,  
Barguzar az çadvalu pargori ȳ...*

*Xezu az on parda navoe bisoz,  
Bar xati on xitta saroe bisoz.*

[Xoju 2017: 48].

Tasavvufiy-falsafiy yo‘nalishda yaratilgan “Kamolnoma” dostoni esa mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra xamsanavislik uchun butunlay yangi bo‘lib, xafif bahrida yaratilgan. “Kamolnoma” Hakim Sanoiyning “Sayr ul-ibod” (“Bandalar sayri”) asari ta‘sirida yozilgan [Rahmatov 2017: 9]. Ayrim tadqiqotlarda esa asarning Shayx Sa‘diy “Bo‘ston”iga bitilgan nazira ekanligi ta‘kidlanadi [Adabiyoti forsu to‘qik, 1983: 29; Tohirov, 2021: 71]. Doston muqaddima, 12 bobni o‘z ichiga olgan asosiy qism hamda xotimadan iborat bo‘lib, asosiy qism muayyan axloqiy masala, unga ilova qilingan hikoyat hamda ma‘no hosili va so‘zning to‘g‘riligiga doir bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma” dostoni esa 1345-yilda yaratilgan va Bahouddin Mahmud – zamona hukmdori Muborizuddin Muhammad ibn Muzaffar (1318–1358)ning vaziriga bag‘ishlangan. Dostonning tarkibiy tuzilishi va g‘oyaviy mundarijasi haqida maqolamizning keyingi bo‘limida fikr yuritimiz.

Kirmoniy beshligidagi to‘rtinchi doston “Humoy va Humoyun” deb ataladi. Unda shahzoda Humoy bilan xitoy malikasi Humoyun orasidagi ishqiy sarguzasht qalamga olinadi. Muallifning o‘zi uning islomgacha bo‘lgan davr mahsuli ekanligini ta’kidlaydi. Doston Nizomiy “Iskandarnomasi” bitilgan mutaqorib bahrida yaratilgan. Ishaqiy dostonlarni mutaqorib bahrida bitish tamoyili g‘aznaviylar davri adabiy muhiti (XI asr) uchun xos xususiyat bo‘lib, bu davr ijodkorlaridan Ayyuqiyning “Varqa’ va Gulshoh”, Unsuriyning “Vomiq va Uzro” dostonlari shu she’riy o‘lchovda yaratilgan edi. Bu holat mazkur bahrda birinchi bo‘lib to‘liq masnaviy-doston yaratgan Firdavsiy nomi bilan bog‘liq deb aytish mumkin [Yusupova, 2011: 51]. Kirmoniy dastlab o‘z “Somnoma”sini, keyinchalik “Humoy va Humoyun”ni shu o‘lchovda bitish bilan muayyan tarzda Firdavsiy an’anasini davom ettiradi.

Beshlikning so‘nggi dostoni “Gul va Navro‘z” ishqiy-sarguzasht yo‘nalishida bo‘lib, unda Vizantiya malikasi Gul va xurosonlik shahzoda Navro‘zning muhabbati tasvirlanadi. G‘.Aliyevning fikricha, bu dostonda Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoniga o‘xshash ayrim jihatlarni uchratish mumkin [Aliyev, 1985: 231]. Lekin shunga qaramay, ushbu mavzu xamsanavislik uchun yangi ekanligini ta’kidlash zarur.

Kirmoniy dostonlaridagi mavzu, g‘oyaviy yo‘nalish va she’riy o‘lchov bilan bog‘liq bu o‘zgarishlar muallifning xamsanavislik an’anasiga munosabatda o‘z pozitsiyasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

### **“Gavharnoma” va “Layli va Majnun” dostonlarining tarkibiy tuzilishi hamda g‘oyaviy mundarijasi**

“Gavharnoma” Xoju Kirmoniy beshligidagi uchinchi doston bo‘lib, hajman 40 bob, 1032 baytdan iborat. Doston madh yo‘nalishida yaratilgan va saljuqiylar sulolasi vaziri Nizomulmulkning avlodlaridan biri – Bahouddin Mahmudga bag‘ishlangan. Boshqacha aytganda, unda Bahouddin Mahmudning nasabnomasi bayon qilinadi. Doston muqaddimasi quyidagi 7 bobni o‘z ichiga oladi:

1. Hamd
2. Na’t
3. Munojot
4. Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffar madhi
5. “Gavharnoma”ning yozilish sababi
6. Bahouddin Mahmudga duo tariqasidagi g‘azal
7. Donishmand pirga savol bilan murojaat.



Muqaddimadan soʻng, shartli ravishda toʻrt qismni oʻz ichiga oluvchi va doston boʻylab takrorlanuvchi asosiy qism boblari keladi. Ularni quyidagi ketma-ketlikda koʻrish mumkin:

1. Donishmand pining mamduh (madh etilayotgan shaxs)ning asllik gavharini ochib berishi (ushbu qismdagi “gavhar” bilan bogʻliq oʻrinlar doston nomlanishi uchun asos boʻlgan deb aytish mumkin).

2. Sayyoralardan birining donishmand pir gaplarining toʻgʻriligiga guvohlik berishi.

3. Gʻazal.

4. Mamduhdan hol soʻramoq.

Shu oʻrinda dostonda qoʻllanilgan gʻazal janri haqida ikki ogʻiz soʻz. Garchi Nizomiy “Xusrav va Shirin”da, Xusrav Dehlaviy “Shirin va Xusrav” dostonlarida gʻazal soʻzini qoʻllab, uni boblar sarlavhalariga chiqargan boʻlsalar-da (masalan, “Shirin tilidan Nakiso gʻazali” [Amir Xusrav, 1971: 172–175]), ularda gʻazal mustaqil janr sifatida emas, balki masnaviy shakliga boʻysundirilgan (qofiyalanishi aa-vv-ss) va hajman bir bob doirasidagi baytlarni oʻz ichiga oladi. Baytlar soʻngida taxallus keltirilmaydi. Xoju Kirmoniy dostonida esa gʻazal mustaqil janr sifatida alohida mavqyega ega. Shu maʼnoda Xojuni xamsanavislik tarixida masnaviy-dostonda gʻazal janrini asosiy tarkibiy qism sifatida qoʻllagan birinchi shoir deb hisoblash mumkin. “Gavharnoma”da 9 ta gʻazal keltirilgan boʻlib, ulardan biri Bahouddin vazir madhiga bagʻishlangan boʻlsa, qolgan gʻazallar shoir avvalgi bobda aytgan fikrning tasdigʻi boʻlib xizmat qiladi. Bu ifoda uslubi asarning oʻziga xos jihatiga aylanib, shoir asardagi qismlarni birlashtirish va bir mavzudan ikkinchi mavzuga oʻtish yakunida gʻazalga murojaat qiladi. Bahouddin vazir madhiga bagʻishlangan gʻazaldan tashqari barcha gʻazallar 9 baytdan iborat boʻlib, Xoju taxallusi bilan yakun topadi. Gʻazallar hassos oshiq tilidan bayon qilingan. Ularda shoir tovushdoshlikka asoslangan va shaklan bir-biriga yaqin soʻzlarni qoʻllab, betakror poetik timsollar yaratadi:

*Xusho, dil dar baru, dildor dar dast,  
Shabi dayjur-u Zulfi yor dar dast.*

*Saram bar bod raftu boda dar dast,  
Man az gul bar kanoru xor dar dast...*

[Xoju, 2017: 326]

“Gavharnoma” hazaj bahrining *hazaji musaddasi mahzuf* yoki *maqsur* (afoyli va taqti’i: mafoilun mafoilun fauvlun yoki mafoil, V - - - / V - - - / V - - yoki V - ~ ) vaznida yozilgan.

Endi Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonining tarkibiy tuzilishiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. “Layli va Majnun” 1484-yilda yaratilgan bo‘lib, 38 bob, 3623 baytdan iborat. 9 bobdan iborat muqaddima quyidagi qismlarni o‘z ichiga o‘z ichiga oladi:

1. Hamd
2. Munojot
3. Na’t
4. Me’roj tuni ta’rifi
5. So‘z ta’rifi, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy madhi
6. Abdurah-mon Jomiy madhi
7. Sulton Husayn Boyqaro madhi
8. Badiuzzamon Mirzo madhi
9. Tun ta’rifi.

Asosiy qism voqealari 10-35-boblarda bayon qilib berilgan. Unda Qays (Majnun)ning tug‘ilishi, bolalik davri, Layliga oshiq bo‘lishi, Qays va Layli qabilalari orasidagi urush, Majnunning Ka’baga borishi va bosh qahramonlar o‘limi bilan bog‘liq voqyealar tasvirlanadi. Xotima esa uch bob (36–38)dan iborat bo‘lib, quyidagi qismlardan iborat:

36-bob – Ishq ta’rifida

37-bob – Shahzoda Sulton Uvays bahodir madhi

38-bob – “Dard navhasi”ning yakuni

Doston shu yo‘nalishidagi asarlar uchun avvalda belgilab qo‘yilgan she’riy o‘lchov – Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf yoki maqsur (afoyli va taqti’i: maf’uvlu mafoilun fauvlun yoki mafoil, - - V / V - V - / V - - yoki V - ~ ) vaznida yozilgan.

Ko‘rinadiki, Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma” va Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonlari mavzu yo‘nalishi, tarkibiy tuzilishi, g‘oyaviy mundariyasi hamda qo‘llanilgan she’riy o‘lchovi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Xo‘sh, nega unda Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bu ikki dostonni birgalikda tilga olib, shunday deb yozdi:

“Layli va Majnun” vodisida ishqim po‘ya urub, Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisorimga gavharlar yetkuruptur”. Kuzatishlarimiz asosida ayrim mulohazalarimizni bayon qilamiz. Birinchidan, Xoju Kirmoniy xamsanavislik tarixida Nizomiy va Dehlaviydan so‘ng uchinchi beshlik yaratgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Navoiy o‘zining aynan

uchinchi dostoni haqidagi o‘rinda uni Nizomiy va Dehlaviydan so‘ng tilga olishi shu bilan bog‘liq. Ikkinchidan, Xoju Kirmoniy xamsanavislikda yangi yo‘nalishni boshlab bergan ijodkordir, aynan uning beshligidan so‘ng xamsa tarkibiga yangi mavzu va syujetlarni olib kirish tamoyili paydo bo‘ldi [Yusupova, 2011: 51-52; Rahmatov, 2017: 9-10]. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni esa turkiy tilda ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo‘lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda forsiy salaflarining dostonlarini chuqur o‘rganadi va xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an‘analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi”:

*Yozmoqta bu ishq jovidona,  
Maqsudum emas edi fasona.*

*Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,  
Afsona edi aning tufayli.*

*Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,  
Afsona anga libosi mavzun...*

*... Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasonani hikoyat.*

[Navoiy, 1992: 310-311].

Alisher Navoiygacha turkiy she‘riyatda “Hayrat ul-abror” va “Xusrav va Shirin” yo‘nalishidagi dostonlar mavjud edi. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror”, Sayyid Qosimiyning “Majma‘ ul-axbor”, Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostonlari bunga misol bo‘la oladi. Lekin “Layli va Majnun” mavzusida turkiy tilda doston bitilmagan edi. Demak, Navoiy mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra turkiy til va adabiyot uchun yangi bo‘lgan dostonni boshlab beryapti.

Uchinchidan, “Gavharnoma” muallifi o‘z dostonida Bahouddin Mahmud nasabnomasini eng yuksak badiiy shaklda taqdim qilishni maqsad qilgani uchun unda saroy muhitiga xos hashamdorlik, fasohat va balog‘atga to‘la uslub yetakchilik qiladi, boshqacha aytganda, muallif nasabnoma madhida eng go‘zal gavharlarni ipga tizadi. Bir misrani uch, ba‘zan ikki so‘zdan iborat qilib tuzish, bosh qahramonlar ismlarini

ularning lug‘aviy ma’nolarini jilvalantirib, bir necha shakllarda qo‘llash kabi holatlar “Gavharnoma”ning badiiyatini oshirgan jihatlar bo‘lib, Navoiy “Layli va Majnun” dostonini yaratishda Xojuning “gavharlar”idan, boshqacha aytganda, so‘z qo‘llash mahoratidan ta’sirlangan. Yoki Xojuning doston tarkibidagi oshiqona g‘azallari Navoiyni “Layli va Majnun”dagi bosh qahramonlar ruhiyatini ochib berishga ilhomlantirgandir, ehtimol... Har holda Xoju va Navoiy dostonlari orasidagi badiiy mushtarakliklarni o‘rganish keyingi tadqiqotlar uchun dolzarb ilmiy muammo bo‘lishi shubhasiz.

### “Xamsa”ning boshqa dostonlariga doir qaydlar

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Hayrat ul-abror” haqida so‘z ketganda, quyidagi fikrlar keltiriladi: “Avvalkim, “Hayrat ul-abror” bog‘ida tab‘im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur” [Navoiy 2000: 26]. Bir qarashda Navoiy o‘z “Xamsa”sining birinchi dostoni uchun “Maxzan ul-asror”ni asosiy manba sifatida ko‘rsatayotgandek. Lekin “Hayrat ul-abror”ning Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan 13-bobiga murojaat qilsak, unda quyidagi baytlarni o‘qiymiz:

*... Bazmda bir kun yuzidin nur edi,  
Har soridin nodira mazkur edi.*

*Tushti chu rahrav bila payravg‘a so‘z,  
yetti Nizomiy bila Xusravga so‘z...*

*...O‘tti chu alqissa bir oy, ikki oy,  
Bir kun o‘lub, baxtu xirad rahnamoy.*

*Xizmatin ettimki, tamanno edi,  
Ilgida ko‘rdum necha ajzo edi.*

*Kulgu bila qildi ishorat manga,  
“Tuhfa” bila berdi bashorat manga*

*Kim: “Olibon boshtin ayog‘ig‘a boq,  
Qil nazar avroqig‘a boshtin-ayoq”.*

*Ollig‘a jon naqdini sochtim ravon,  
Oldimu o‘ptum, dog‘i ochtim ravon.*

*Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,  
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror” edi...*

*... Shavqida ko'ksumni shigof ayladim,  
Jildig'a ko'nglumni g'ilof ayladim.*

*Chun o'qumoq zamzamasini bo'ldi bas,  
Ko'nglum aro dag'dag'a soldi havas,*

*Kim bu yo'l ichraki alar soldi gom,  
Bir necha gom o'lsa manga ham xirom.*

*Forsi o'ldi chu alarg'a ado,  
Turki ila qilsam ani ibtido.*

*Forsi el topti chu xursandliq,  
Turk dog'i topsa berumandliq.*

[Navoiy, 1991: 54-55].

Ushbu parchaning qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tsak: Navoiy bir kuni Jomiyning huzurida majlisda o'tirgan vaqtida, rahrav – yo'l boshlovchi va payrav – ergashuvchi haqida so'z borib, Nizomiy va Dehlaviy xamsalari tilga olinadi. Nizomiyning bu yo'lda rahrav ekanligi, Dehlaviy uning beshligiga javob yozib, payravlik yo'lini tutganligi ta'kidlanadi. Oradan bir-ikki oy vaqt o'tib, Navoiy yana Jomiyning huzuriga borganida, Jomiy unga qo'lida turgan bir nechta varaqlarni taqdim qiladi. Bu Jomiy endigina yozib tugatgan “Tuhfat ul-ahror”dan sahifalar edi. Asar bilan tanishgan Navoiy g'oyat to'lqinlanib ketadi va ko'nglida shunday yo'nalishdagi asarni turkiy tilda bitish orzusi paydo bo'ladi...

Mazkur parcha “Hayrat ul-abror”ning yaratilishida Nizomiydan ko'ra ko'proq Jomiyning “Tuhfat ul-abror” dostoni turtki bo'lganligini ko'rsatadi. Albatta, Navoiy o'z dostonini yozishda Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy dostonlaridan ta'sirlanganligini, “Hayrat ul-abror” o'z navbatida “Maxzan ul-asror” va “Matla' ul-anvor”ga ham tatabbu' ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Lekin Navoiy o'z falsafiy-ma'rifiy qarashlari bayonida “Tuhfat ul-ahror”dan ko'proq ozuqa olganligini e'tirof etish zarur.

“Hayrat ul-abror” dostoni bo'yicha izlanishlar olib borgan olimlarimiz ham bu ikki dostonning ko'plab jihatlarda o'zaro aloqador ekanligi haqida

o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilganlar. Xususan, M.Muhiddinov Navoiyning birinchi dostoni muqaddimasi va xotimasi, shuningdek, komil inson haqidagi qarashlari ikki salaflaridan ko‘ra ko‘proq Jomiy dostoniga yaqin turishini ta’kidlaydi [Muhiddinov, 2021: 24-33]. O.Davlatovning fikricha, “Hayrat ul-abror”dagi basmala bobining ohang va ruhi Jomiy dostoniga juda ham yaqin” [Davlatov, 2017: 57].

Demak, aytish mumkinki, Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostoni Navoiy uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining tilga olinishiga asosiy sabab: birinchidan, Nizomiy ilk “Xamsa”, ya’ni “Panj ganj”ning muallifi bo‘lsa, ikkinchidan “Maxzan ul-asror” beshlik tarkibiga kiruvchi ilk dostonidir. Navoiy o‘z “Xamsa”sidagi barcha dostonlarda ustozlarga ehtiromni aynan Nizomiy Ganjaviy nomini tilga olishdan boshlashi ham tabiiyki shu holat bilan bog‘liq.

Yoki “Xamsa”dagi ishqiy sarguzasht doston bo‘lgan “Sab‘ai sayyor” bilan bog‘liq kuzatishlarimizni bayon qilsak. Bu doston “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Ashraf Marog‘iyning “Haft paykar” dostoni bilan bog‘liq holda taqdim etiladi. Ma’lumki, Ashraf XV asrda yashab faoliyat yuritgan fors tojik shoiri bo‘lib, Darvesh Ashraf Xiyoboniy nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. U 1434–1440-yillar oralg‘ida Nizomiy beshligiga javoban “Xamsa” yozgan. Uning “Xamsa”si “*Minhoj ul-abror*” (“Solih kishilarning haq yo‘li”), “*Riyoz ul-oshiqin*” (“Oshiqning mashaqqatlari”) yoki “Shirin va Xusrav”), “*Ishqnoma*” yoki “Layli va Majnun”, “*Haft paykar*” (“yetti go‘zal”) yoki “Haft avrang” (“yetti taxt”) va “*Zafarnoma*” dostonlaridan iborat. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da shunday deyiladi: “Yana chun “Sab‘ai Sayyora” rasadin zamirim bog‘labdur, Ashraf “Haft paykar”ining yetti hurvashin peshkashimga yarog‘labdur”. Fikrning mazmuniga e’tibor qaratsak: “Yana “yetti sayyora”ni kuzatish jadvali ko‘nglimga bog‘lanib, Ashraf “yetti go‘zal”dagi yetti hur yuzlini sovg‘a uchun taqdim etibdi”. S.Hasanov “Navoiyning yetti tuhfasini” tadqiqotida Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostonini Nizomiy, Dehlaviy va Ashrafning shu yo‘nalishdagi dostonlari bilan qiyoslash asnosida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Bahrom bilan kanizak o‘rtasida ovda bo‘lib o‘tgan manzara, Havarnaq qasrini qurgan binokorning o‘limi va shunga o‘xshash epizodlar Ashraf dostonida yo‘q. Natijada Ashrafning “Haft avrang” asari alohida syujet va kompozitsion tuzilishga ega bo‘lib, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy dostonlaridan keskin farq qiladi [Hasanov, 20: 24-33]. Shuningdek, olim

Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”dagi fikrlariga munosabat bildirib, shunday yozadi: “Fikrimizcha, Ashrafda Dilorom nomining yettinchi hikoyada paydo bo‘lishi, Navoiyda salaflari dostonlaridagi asosiy qism bilan hikoyalardagi uzilishni, aynan shu yettinchi hikoyada, Diloromning o‘zini ishtirok etkazib amalga oshirish lozimligi g‘oyasining yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun Navoiy, Nizomiy “Haft paykar”idagi yetti go‘zal haqidagi hikoyalarni hal qilishni Ashraf menga tashlab qo‘ydi, – degan” [Hasanov, 1991: 24-33]. Ya’ni S.Hasanov Ashraf dostonidagi yettinchi hikoyatda Dilorom nomining keltirilishi Navoiy uchun asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin, degan taxmini keltiradi. Bunga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Ashrafning adolatli podshoh haqidagi qarashlari ham Navoiy uchun muayyan tarzda asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin, zero, “Sab’ai sayyor”dagi Bahrom obrazi salaflar dostonlaridagi bosh qahramondan ko‘ra adolatliroq, dardchilroq va ishqda muayyan pog‘onaga ko‘tarila olgan shaxs. Lekin umumiy holatda Ashraf dostoni Navoiyning “Sab’ai sayyor”i uchun asosiy manba vazifasini o‘tay olmaydi, chunki Navoiy aynan shu dostonining kirish qismida Ashraf dostonini tilga olib, unga “yaxshi ham emas, yomon ham emas” degan bahoni beradi:

*Garchi bir nuktago‘y Ashraf o‘lub,  
O‘zi maqdurig‘a musharrafo‘lub.*

*Yaxshi yoxud yomon dedi, g‘am emas,  
Yaxshi gar bo‘lmasa, yomon ham emas.*

[Navoiy, 1992: 39]

Bizningcha, bunday munosabat muallifi mantiqan qaraganda, o‘z dostoni uchun bu asarni manba qilib olishi ehtimoldan yiroq.

**Xulosa.** Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘z beshligi va salaflar dostonlari haqida aytgan fikrlari nisbiy xarakterda bo‘lib, “Xamsa” dostonlari uchun asos bo‘lgan manbalarni keltirish maqsadida emas, balki birinchidan, salaflarning xamsanavislikdagi mavqeyi, o‘rni va ularga hurmat ma’nosida bo‘lsa, ikkinchidan o‘z g‘oyaviy pozitsiyasini belgilash bilan ham bog‘liqdir. Shuningdek, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da so‘zdan foydalanish bilan bog‘liq fasohat ham mavjud bo‘lib, Navoiy salaflar dostonlarining nomlaridan so‘z o‘yini sifatida foydalanadi, ya’ni Nizomiy “Maxzan ul-asror”idin boshimga

durlar sohibdur” yoki Xoju himmati “Gavharnoma”sida nisoringa gavharlar yetkuruftur”.

“Hayrat ul-abror”ni tilga olishda Nizomiy “Maxzan ul-asror”ining eslanishi bu – Nizomiyning ilk beshlik muallifi ekanligi va “Maxzan ul-asror”ning “Panj ganj” tarkibidagi birinchi doston ekanligi bilan bog‘liq. Xuddi shuningdek, Navoiy Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”ini ikkinchi xamsanavisning shu yo‘nalishdagi dostoni sifatida tilga oladi.

Ashrafning “Haft paykar” dostoni salaflar dostonlari va Navoiy “Sab‘ai sayyor”idan farq qilib, unda Bahrom va kanizak haqidagi qoliplovchi syujet mavjud emas. Shu jihatdan “Haft avrang” asari alohida syujet va kompozitsion tuzilishga ega.

Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma” dostoni nasabnoma yo‘nalishida bo‘lib, g‘oyaviy yo‘nalishi, kompozitsion qurilishi va tanlangan she‘riy o‘lchovi nuqtai nazaridan ham “Layli va Majnun” yo‘nalishidan farq qiladi. Xamsanavislikda Xoju Nizomiy va Dehlaviydan so‘ng uchinchi xamsanavis sifatida mashhur. Navoiy o‘zining aynan uchinchi dostoni haqidagi o‘rinda uni Nizomiy va Dehlaviydan so‘ng tilga olishi shu bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, Navoiy ushbu salafining xamsanavislikda yangi yo‘nalishni boshlab berganligini nazarda tutib, o‘z “Layli va Majnun” dostoni turkiy tilda yaratilgan ushbu mavzudagi ilk doston ekaligiga ham ishora qiladi. Shuningdek, o‘z dostonining badiiy xususiyatlari bilan bog‘liq ayrim o‘rinlarda Xoju “Gavharnoma”sidan ta’sirlanganligini nazarda tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабиёти форсу точик дар асрҳои XII-XIV. – Душанбе: Ирфон, 1983.
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 7. – Т.: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 8. – Т.: Фан, 1991.
4. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 9. – Т.: Фан, 1992.
5. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 10. – Т.: Фан, 1992.
6. Алишер Навоий. Садди Искандарий. МАТ. 20 жилдлик. – Ж. 11. – Т.: Фан, 1993.



**2-SHO‘BA. ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD  
BOBUR IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY MASALALARI**

- Sodiqov Qosimjon.** Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan til bilimi atamaları (*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori*) 115  
Toshkent, O‘zbekiston
- Prof. Dr. Ali Temizel.** Ali Şîr Nevâî hakkında Türkiye’de yapılan akademik çalışmalar (*Selçuk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Fars Dili ve Edebiyatı Bölümü*) 131  
Konya, Türkiye
- Rustamiy Salimaxon, Rustamiy Muhibbek.** “Mahbubu-l-qulub” asari zamonaviy nashrlariga oid ayrim mulohazalar (*filologiya fanlari nomzodi, Ichki ishlar idoralari faxriysi, Oriental universiteti professori, filologiya fanlari doktori*) 152  
Toshkent, O‘zbekiston
- Yusupova Dilnavoz.** Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari bilan bog‘liq talqinlari (*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori*) 160  
Toshkent, O‘zbekiston
- Madaliyeva Oysara.** “Navodir un-nihoya” devoning Sultonali Mashhadiy qo‘lyozmasi xususida (*O‘zR FA Sharshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, TDSHU dotsenti, PhD*) 173  
Toshkent, O‘zbekiston
- Razmi Gholamreza.** Nevâî founder of the Timurid style in poetry (Tomurid style Theory) (*Genetic & Plant Breeding (MSc.) Independent Turkic & Persian Language and Literature Researcher*) 188  
Tebriz, Iran
- Eshghi Erfan.** Nevai ve Nesimi Arasindaki benzerliklere ve farklılıklara bir bakış (*Urmia Üniversitesi, Hukuk Öğrencisi*) 231  
Urmia, Iran